

## BIOLOGIYA FANINI O'QITISH METODIKASI

**Azizova Xushnuda Umedkulovna**

*Samarqand tuman 12-umumta'lim maktab biologiya o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolamning mazmuni shundan iboratki, biologiya fanini o'qitish metodikasi biologiya o'quv fanlarining mazmuni, uning o'qitish shakllari, metodlari, vositalarini o'zaro bog'liq holda joriy etish, biologiya o'qitish metodlari va ularning klassifikatsiyasini tashkil etish yo'llari tahlil etilgan.

- **Kirish so'zlar:** Biologiya o'qitish metodikasi, axborot va pedagogik texnologiyalar, biologik tushunchalar, klassifikatsiya, tizimli yondashuv, faoliyatga yo`naltirilgan yondashuv, dialogik yondashuv, hamkorlikda ta`limni tashkil etish, muammoli ta`lim, pedagogik bilimlar.

Biologiya o'qitish metodikasi biologiya fan asoslari bilan bog'liq bo'lgan o'quv jarayonlar va qonuniyatlar to'g'risidagi fandir. Mazkur qonuniyatlarni bilish o'qituvchiga maktab biologiya darsi bilan bog'liq o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni zamon talablariga mos holda tashkil etish va boshqarish imkonini beradi. Biologiya o'qitish metodikasi biologiya o'quv fanlarining mazmuni, uning o'qitish shakllari, metodlari, vositalarini o'zaro bog'liq holda joriy etishni maqsad qilib qo'yadi. Biologiya o'qitish metodikasining asosiy vazifasi o'quvchilarga biologik o'quv fanlar bo'yicha chuqr atroflicha bilim berish, ularning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida kamol topishiga ko'mak beruvchi o'quv fanlar mazmunini, o'qitish shakllari, vositalari va metodlarini ishlab chiqishdan iborat. Har qanday fan insonning tadqiqot faoliyati bilan aloqador bo'lib, u narsa va hodisalar to'g'risida bilimlar to'plashga yo'naligan, hamda tadqiqot qilinayotgan narsa hodisalar to'g'risida to'liq va chuqr bilim olishga qaratilgan. Fanning asosiy funksiyasi tadqiqot hisoblanadi. Biologiya o'qitish metodikasi fan sifatida mazkur fan bilan bog'liq o'quvchilarining bilim olish, tarbiyalanish va rivojlanishini nazariy va amaliy jihatidan tadqiq qilishni maqsad qilib qo'yadi. Fanning asosiy belgisi bo'lib, maqsadning aniqligi, o'rganish predmeti,

bilimlarni bilish usullari va shakllari hisoblanadi. Shu bilan birga fanning rivojlanish tarixi, uning boyishiga sababchi bo‘lgan kashfiyotlarni qilish ham muhim sanaladi. Biologiya o‘qitish metodikasi pedagogik fanlar tarkibiga kiradi. Shu sababli uning oldida turgan maqsad va vazifalar ham umumpedagogik maqsad va vazifalardan kelib chiqadi. Biologiya o‘qitish metodikasi barcha o‘quv fanlarga taalluqli bo‘lgan pedagogik qoidalarni, biologik o‘quv materialiga tatbiq etishga yo‘nalgan. Shu bilan bir qatorda biologiya o‘qitish metodikasi tabiiy, ilmiy, biologik, psixologik, pedagogik bilimlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Biologiya o‘qitish metodikasi biologiya o‘quv fanining o‘qitish maqsadini, mazmunini, biologik bilimlarning tanlash prinsipini belgilab beradi. Biologiya o‘qitishning hozirgi davrda samarali bo‘lishi o‘quvchilarning o‘quv, mehnat va jamoat faoliyatlarida qatnashish uchun zarur bo‘lgan biologik bilimlar, ko‘nikmalar, malakalarni egallaganliklari bilan belgilanadi. Ular esa o‘z navbatida o‘quvchilarning tarbiyalanganlik natijasida, dunyoqarashi, e’tiqodi, tabiat, jamiyat va shaxsga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarning rivojlanish darjasи, qobiliyati, jismoniy va amaliy jihatdan takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyoji bilan ifodalanadi. Biologiya o‘qitishning maqsadi yuqorida qayd qilingan omillardan kelib chiqadi. Biologiya o‘qitishning maqsadlarini bilish o‘qituvchiga o‘qitish jarayonini boshqarish imkoniyatini beradi. Hozirgi davrga kelib, biologiya o‘qitish metodikasida o‘tkazilgan pedagogik tajribalar natijasida “Biologik tushunchalarni rivojlantirish”, “Biologiyada o‘qitish shakllarining sistemasi”, “Biologiyada o‘qitish metodlari”, “Biologiyada ekologik tushunchalarni rivojlantirish”, “Biologiya o‘qitishning moddiy bazaviy sistemasи”, “Pedagogika Oliy o‘quv yurtlari talaba biologlarning mакtabdagи ishga metodik tayyorlash sistemasи” kabi nazariyalar ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan. Maktablarda o‘qitiladigan biologiya o‘quv fanlarga qarab “Biologiya o‘qitish metodikasi” fani “Biologiya o‘qitishning umumiy metodikasi”, “Botanika o‘qitish metodikasi”, “Zoologiya o‘qitish metodikasi”, “Odam va uning salomatligini o‘qitish metodikasi” va nihoyat “Umumiy biologiyaning o‘qitish metodikasi” kabi xususiy o‘qitish metodika fanlariga ajratiladi. Biologiya o‘qitishning umumiy metodikasi barcha biologik o‘quv fanlariga oid o‘qitishning maqsadi, vazifasi, mazmuni, prinsiplari, usullari, vositalari, shakllari, biologiyani o‘qitish tarixi,

bosqichlari kabimasalalarini qamrab oladi. Xususiy metodikalar esa u yoki bu o‘quv fanining mazmuni o‘quvchilarning yoshi bilan bog‘liq dars, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, ekskursiyalar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish, jihozlash kabilarni diqqat markazida tutadi. Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar. Talabalarning biologiya o‘qitish metodikasi fanini o’zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg’or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o’zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo’llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar hamda gerbariylar, mulyajlardan foydalaniladi. Fanning o‘qitish turlari dasturda ko’rsatilgan mavzular ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi. Shuningdek atroficha bilim olishni ta’minalash maqsadida talabalarga mustaqil ish mavzulari ham beriladi. Fanni zamonaviy pedagogik uslublar – “Klaster”, “Bumerang”, “Debashlar” tarzida o’tish ham ko’zda tutilgandir. Ma’lumotlar ko’rgazmali o‘quv qurollari, kodoskop, multimedia, mikroskop, total va kesmali preparatlar yordamida olib boriladi. Ma’ruza, amaliy darslarida mos ravishdagi ilg’or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

“Biologiya o‘qitish uslubiyati” kursini o’rganishda quyidagi asosiy konseptual yondashuvlardan foydalaniladi:

- Shaxsga yo`naltirilgan ta`lim;
- Tizimli yondashuv;
- Faoliyatga yo`naltirilgan yondashuv;
- Dialogik yondashuv;
- Hamkorlikda ta`limni tashkil etish;
- Muammoli ta`lim;

Biologiya fanlarining strukturasi va biologik tushunchalarni shakllantirish. Biologiya predmetlarining strukturasi, tuzilishi, asosiy mazmuni va bilimlar tizimi. O’rta maktab, kollej, litseylarda qo’llanalidagigan darsliklar, o‘quv metodik qo’llanmalar. Politexnik ta’lim. O’quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash va ularni o’tkazish. Biologik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi. Biologik tushunchalar va ularning klassifikatsiyasi. Umumiyligi va xususiy tushunchalar, oddiy va

murakkab tushunchalar, maxsus va lokal tushunchalar. Tushunchalarni shakllantirish yetarlari. Botanika, zoologiya, odam va uning salomatligi, umumiy biologiya kurslarida biologik tushunchalarni shakllantirish. Biologiya o'qitish metodlari va ularning klassifikatsiyasi. Usullar klassifikatsiyasi va ularning xilma-xilligi. O'qitish metodlarining umumiy tavsifi. Og'zaki metodlar va ularning shakllari: suhbat, tushuntirish, ma'ruza, seminar. Ushbu metodlarni qo'llashning metodik tavsiyalari. Ko'rgazmali, amaliy metodlar va ularning o'ziga xosligi. Kuzatish, tajriba va eksperimentlarni o'tkazish metodik ko'rsatmalar. Interfaol metodlar haqida tushunchalar. Umumiyo'rta va o'rta maxsus, kasb-xunar tahlim biologiya o'qituvchini tayyorlashda biologiya o'qitish metodikasi o'quv fani nixoyatda muxim o'rinni tutadi. Bu o'quv fanini o'qitish jarayonida talabalarning biologiyani o'qitish uchun zarur kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar shakllanadi. Tabiiydirki, o'quv fanida fan to'plagan xamma bilimlar emas, balki uning asoslari beriladi. Ular o'qitish vazifalaridan, o'quvchilarning yoshi, tayyorgarlik darajasini ehtiborga olgan xolda maxsus saralangan bilimlar majmuasidan iborat. Fandan farqli ravishda o'quv fanining asosiy vazifasi bilim va mahlumot berishdir. O'quv fani fanning aniq nusxasi emas. O'quv fanini yaratishda fan tomonidan to'plangan bilimlar va tajribalar tizimini talabalarga berish ustunlik qiladi. U faqat ilmiy mahlumotlarni to'plash tartibi emas, balki tushunchalarni umumlashtirish, aniqlashtirish, ilmiy faktlarni, fikr – muloxazalarni tartibga solishdan tarkib topadi. O'quv fani o'zining asosiy bilim va mahlumot berish funktsiyasidan kelib chiqqan xolda mahlum tartib asosida tuzilgan. Oliy maktab biologiya o'qitish metodikasi darsligi o'z tuzilishi va mazmuniga ko'ra fanga yaqinroq. U o'z tarkibiga ilmiy mahlumotlardan tashqari fandagi ayrim munozarali masalalarni yechishga qaratilgan turlicha qarashlarni, xaqiqatni topishda muvafaqqiyatlari yo muvafaqqiyatsiz izlanishlarni xam o'zida ifoda qiladi. SHu bilan bir qatorda ilmiy izlanishlar metodologiyasini, usullarini xam yaratadi. Biologiya o'qitish metodikasi o'quv fani talabalarni nazariy va amaliy jixatidan tayyorlash jarayonida faqat maktab biologiya kursining tuzilishini bayon etish cheklanmay, umumiyo'rta va o'rta maxsus kasb – xunar muassasalarida biologiya bo'yicha o'qitishning tashkil etishni o'ziga xos tomonlari bilan xam tanishtiradi, biologiya o'qitish usullari, vositalarni qo'llash.

bo'yicha ko'nikma malakalarni shakllantirishga xamda o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan minimal bilimlar majmuasini talablar tomonidan o'zlashtirishga imkon beradi. SHu bilan birgalikda zamonaviy pedagogik, axborot texnologiyalarni qo'llash, biologiya o'qitishda innovatsion yondashish ko'nikmalarini xosil qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. <https://e-library.namdu.uz/74%20%D0%9F%D0%B5%D0%B4%D0%B0%D0%B3%D0%BE%D0%B3%D0%B8%D0%BA%D0%B0%20%D1%84%D0%B0%D0%BD%D0%BB%D0%B0%D1%80/Biologiya%20o'qitish%20metodikasi%20o'quv%20qollanma.pdf>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/biologiya-fanini-oqitishda-zamonaviy-metodlar>
3. <https://biologiya.edu.uz/kontent/biologiya/1/1.pdf>